

MAQSUD SHAYXZODA-TEATR OLAMIDA!*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi**TOSHKENT DAVLAT**TRANSPORT UNIVERSITETI**Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi**yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada aktyor Shukur Burhonning atoqli shoir, serqirra ijodkor Maqsud Shayxzoda bilan o'tkazgan vaqtлari, ikki tanish o'rtasidagi iliq munosabat va "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy-drammasining sahnalshtirilishi qay tarzda borganligi haqida hikoya qilinadi.

Kalit so'zlar: sahna, tarix, avlod, ijod, jasorat, matonat, samimiyat, iliq munosabat.

МАКСУД ШЕЙХЗАДЕ – В ТЕАТРАЛЬНОМ МИРЕ!*Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.**ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ**ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени**yoldoshivafarangiz311@gmail.com*

Абстрактный. В данной статье рассказывается о времени, проведенном актером Шукуром Бурханом с известным поэтом, творческим художником Максудом Шейхзаде, о теплых отношениях между двумя знакомыми, а также о том, как проходила постановка исторической драмы «Джалалуддин Мангуберди».

Ключевые слова: сцена, история, поколение, творчество, смелость, упорство, искренность, теплое отношение.

MAQSUD SHEIKHZADE-IN THE THEATER WORLD!*Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna**TASHKENT STATE**TRANSPORT UNIVERSITY**Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student**yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Abstract. This article tells about the time spent by the actor Shukur Burhan with the famous poet, creative artist Maqsud Sheikhzada, the warm relationship between the two acquaintances, and how the staging of the historical drama "Jalaluddin Manguberdi" went.

Key words: scene, history, generation, creativity, courage, tenacity, sincerity, warm attitude.

“Shayx aka umrini umrday qilib yashagan edi. Hamma gap ana shunda. Shunday umrlar bo’ladiki, yillar va asrlar o’tib, necha-necha avlodlarga ibrat namunasi bo’lib qoladi. Shayx aka yashagan va bugun ham ko’z oldimizda kechagidek yorqin bo’y berib turgan umr ana shunday umrlar sirasidan.

Shayx aka avvalam bor barchaga barobar, dilkash, qadrdon o’rtoq, istarasi issiq, hamisha dilga yaqin inson edilar. Hamisha to’g’risini, ko’pincha tagdor qilib, lekin samimiyl gapiruvchi edilar.

Odamning necha yoshga kirganini uning kechirgan oylari, yillari bilan o’lchamaslik kerak. Uning qilgan ishlari bilan o’lchamoq lozim. Lekin bu gaplarni o’zim to’qib aytayotganim yo’q. Sharq donishmandlaridan qaysi biriniyam gapi bu, lekin topib gapirgan, otasiga balli...

Men Shayx aka asaridagi Jaloliddin rolini o’ynaganim uchungina kuyib-pishib gapirayotganim yo’q, Inson Shayxzodani, shoir Shayxzodani, dramaturg Shayxzodani, har sinovga shay, har qanday dovonni oshib o’tishga qodir Shayxzodani bilgan, ko’rgan, u bilan ishlashgan, suhbatlashgan har bir odam shunday hayajonlanib so’zlamasdan iloji yo’q, desam xato qilmagan bo’laman. Men Shayx aka bilan o’ttizinchi yillarning boshlarida u kishi Toshkentga ko’chib kelgan kezlaridanoq birga bo’lganman. Eski shahar bilan Yangi shahar o’rtasidagi Qashg’ar mahallada turardilar u kishi. Tanishgan kezlarimiz “Yosh leninchi” gazetasida ishlardilar, chamamda. Judayam harakatchan edilar: ham muallim, ham yangilikni targ’ib etgan, ham turli joylarda, turli kasb egalari orasida bo’lib qaytguvchi, ham dastlabki she’rlari bilanoq tilga tusha boshlagan shoir... Ikki kishi uchrashib qolsa, hech bo’lmasa, Shayxzodaga aloqador bir shingil so’z ketardi-da...” deya tasvirlaydi Shayxzoda uning xonadoniga kelganini misoli bir bayram sifatida qarshilagan aktyor Shukur Burhon.¹

Qalban juda sodda bo’lgan, samimiyat yuragida jo’sh urib turgan ustozimiz Maqsud Shayxzoda har bir so’zini chuqr o’ylab, mulohaza qilib gapiradigan juda tadbirli insonlar sirasidan bo’lgan. Hattoki u 1944 yilda yaratgan “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy-drammasining qaysi rolini kim ijro etishigacha bo’lgan ishlarni

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar.html>

o'zi sarhisob qilib, tanlab qo'ygan. Bu esa yozuvchining naqadar o'z ishiga puxta va mukammal ish qilishni yaxshi ko'radigan inson ekanligidan dalolat beradi.

Aktyor Shukur Burhon ustozni ta'riflar ekan: Qashg'ar mahallada turli millat kishilari yashardi. Shayxzodaning hamma bilan bir lahzada tanishib ketishi havasimizni keltirardi. Shayx aka ko'p tillarni bilar, ozar va o'zbekchani qanchalik yaxshi bilsalar, forsiyda va, ayniqsa, rus tilida ham shunchalik burro gaplasha olardilar. Suhbat falsafasi kuchli edi. Shuning uchun ham Shayx aka yonidan hech jilgim kelmasdi.

O'sha paytlarda Qashg'ar mahallaga yondosh Stalin, Abdulla To'qay degan ko'chalar tutashgan joyga yaqin yerda Injenerniy ko'chasi bo'lguvchi edi. Zamona zayli bilan biz shu ko'chadagi 12-uyga ko'chib borganmiz. Shu-shu Shayxzoda bilan qalin bo'lib qoldik. Hatto keyinchalik kichik o'g'lim tug'ilganida unga Shavkat deb ism qo'ygan ham Shayx aka edilar...

Bir kuni Shayx aka kelib qoldilar. U kishining biznikiga qadamranjida qilishlari xonadonimizda bamisoli bayram bo'lardi. O'sha kuni Shayx aka aytgan gap hamon yodimda: "Shukurjon, xalqimizga oz bo'lsa-da, ma'naviy madad bo'lsin deb moziydan mavzu tanlab, shu dramani yozdim. Jaloliddin Manguberdi haqida. Asarni yozish davomida rollarni kimlar o'ynashini ham o'yladim. Jaloliddin – siz uchun!" Bu xushxabarni quvona-quvona Mannon og'a bilan Usmon otaga yetkazdim. Usmon otaning topshirig'i bilan o'sha paytda Yozuvchilar uyushmasining raisi Hamid Olimjon ham tanishib chiqib, asarni ma'qulladi. O'shanda teatrimizda dramani shoirning o'zi hayajon bilan o'qib bergen. Shayxzodaday shoir, o'tmishimizning katta bilimdon olimi, qomus ul-a'lamning teatrimizda bo'lishi artistlarimiz uchun bamisoli bayram bo'lgan bo'lsa, "Jaloliddin Manguberdi" asari artistlarimiz tomonidan katta sovg'adek qabul qilingan edi.

Asarni sahnaga qo'yishda Shayx aka bevosita ishtirok etdilar. Deyarlik har kuni repetitsiyaga kelar, rejissyorning deganlariga qulqolar, ayni paytda bizga, ya'ni rollarda chiquvchi artistlarga maslahatlar berar edilar. Ko'pincha repetitsiyadan keyin Shayx aka bilan birga qaytardik. Yo'lida ketar ekanmiz, Xorazmshohlar tarixi, Jaloliddin, Temur Malik singari jasur sarkardalar haqida, sahna asarlari qanday bo'lishi, saviyasi, aktyorlar mahorati, til madaniyati haqida gaplashardik. Har bir suhbatda Shayx aka katta san'atkor, mashhur dramaturg, faylasuf, tarixchi, shoir, ayni chog'da olijanob inson sifatida namoyon bo'lib borardilar...

Shunday qilib, "Jaloliddin" 25 kun deganda sahna yuzini ko'rdi va respublikamizning yigirma yillik to'yiga sovg'a bo'ldi.²

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar.html>

Boya aytganimdek, Shayx aka rollarni bo'lib berishda ham chetda turmadilar. Sultonbegin Sora Eshonto'raevaga, Temur Malik Abror Hidoyatovga, Jaloliddin menga, Badriddin Olim Xo'jaevga, Chingizzxon Amin Turdievga tekkan edi.

Amin Turdiev Xorazmga borib, asar qahramonlari uchun qirqta cho'girma – bosh kiyim olib keldi. Sahna ko'rinishlari shunday ishlangan, bezatilgan ediki, tomoshabinda voqeа XIII asrda, Xorazm xonligida bo'layotganiga hech bir shubha bo'lmas edi.

Xullas, asar 1944 yildan boshlab teatrimizda yashay boshladи va qay darajada bo'lmasin, kurashayotgan xalq ruhiga ruh, kuchiga kuch qo'shdi, desam mubolag'a bo'lmaydi".

Albatta insonning qanday inson ekanligini bilish uchun avvalambor unga ishingiz tushganida, uning yordamiga muhtoj bo'lgan paytingizda va albatta u bilan birga yashaganingizda bilishingiz mumkin bo'ladi.

Darhaqiqat, yozuvchi Maqsud Shayxzoda haqida yuqorida aktyor Shukur Burhonning fikrlari barchamiz uchun u kishining qanday inson bo'lganligini yaxshi, teran so'zlar bilan tushuntitib bera oladi deb o'ylaymiz. Inson 60-70 ko'pi bilan 80 yillik umrni bir pasda bosib o'tadi ammo u yozgan asarlar va uning adabiy merosi uni har doim kitobxon insonlar qalbida abadiylikka muhrraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar.html>
2. M.Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi.1944y.
3. <https://tafakkur.net/asarlar/xat>